



JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**JIZZAX VILOYATIDA
UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**

(2022/2023- o'quv yili boshiga)






Jizzax viloyatida umumiy o'rta ta'lim tizimi

Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishiga, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishiga hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishiga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshirilib, quyidagi uchta bosqich (I – XI sinflar)dan iboratdir:




Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud: boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I – IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim maktabi (o'qitish muddati 11 yil: I – XI sinflar), ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 7 yil: V – XI sinflar), ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 5 yil: VII – XI sinflar), ijod maktabi (o'qitish muddati 5 yil: VII – XI sinflar), Prezident maktabi (o'qitish muddati 7 yil: V–XI sinflar), olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 7 yil: V – XI sinflar), jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 11 yil: I – XI sinflar), psixik (intellektual) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internati (o'qitish muddati 9 yil: I – IX sinflar), sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 11 yil: I – XI sinflar), respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra).





Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni

(o'quv yili boshiga, birlik)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni	2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati
Jizzax sh.	42	20
tumanlar		
Arnasoy	22	4,8
Baxmal	86	8,9
G'allaorol	91	1,1
Sharof Rashidov	60	3,4
Do'stlik	21	10,5
Zomin	73	-2,7
Zarbdor	35	25
Zafarobod	21	5
Mirzacho'l	20	0
Paxtakor	20	11,1
Forish	66	3,1
Yangiobod	19	11,8

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni


2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati





**Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonining
ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi**

(o'quv yili boshiga, birlik)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, birlik)

	Boshlang'ich maktab	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	Boshqalar
Jizzax sh.	0	40	2
tumanlar			
Arnasoy	2	20	0
Baxmal	0	86	0
G'allaorol	0	91	0
Sharof Rashidov	4	60	0
Do'stlik	3	18	0
Zomin	0	73	0
Zarbdor	0	33	2
Zafarobod	0	21	0
Mirzacho'l	0	20	0
Paxtakor	0	20	0
Forish	0	66	0
Yangiobod	0	19	0

Boshlang'ich maktab | Umumiy o'rta ta'lim maktabi | Boshqalar






Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari mashg'ulotlarining smenaliligi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz,
o'quv yili boshiga, birlik)

Bir smenada




01




↑ **2,1%**

2022/2023- o'quv yilida
2018/2019- o'quv yiliga
nisbatan

Ikki smenada



02




↓ **4,9%**

2022/2023- o'quv yilida
2018/2019- o'quv yiliga
nisbatan

Uch smenada




03



↓ **33,3%**

2022/2023- o'quv yilida
2018/2019- o'quv yiliga
nisbatan



Smenalar bo'yicha mashg'ulotlar
olib boradigan tashkilotlar ulushi
(2022/2023- o'quv yili boshiga)

- Bir smenada
- Ikki smenada
- Uch smenada



**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan
o'quvchilar soni**

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni	2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati
Jizzax sh.	41,1	28,4
tumanlar		
Arnasoy	7,7	18,5
Baxmal	32,6	10,4
G'allaorol	33,2	16,6
Sharof Rashidov	40,5	23,2
Do'stlik	11,5	20,9
Zomin	33,6	14,8
Zarbdor	16,8	48,4
Zafarobod	8,6	21,6
Mirzacho'l	9,3	9,3
Paxtakor	12,9	15,9
Forish	16,3	14,6
Yangiobod	5,1	8,8

O'quvchilar soni



2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati





Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(o'quv yili boshiga, kishi)



o'quvchilar soni

O'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)

Jizzax sh. 1215 | 46,7%

Sh.Rashidov 178 | 4,7%


O'quvchilar soni | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati






Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)






Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida smenalar bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar sonining taqsimlanishi


(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflar hamda boshqa ta'lim muassasalarida tashkil etilgan sinflarning o'quvchilarisiz, 2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining sinflar bo'yicha taqsimlanishi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflarning o'quvchilarisiz, 2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflarning o'quvchilarisiz, o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Talim olayotgan tillar bo'yicha o'quvchilar soni, nafar					
	o'zbek	tojik	qirg'iz	qozoq	rus	boshqalar


Ta'lim yillari

2022-2023	251	1,1	3,5	0,4	12	-
2021-2022	239	1,1	3,9	0,06	12	-
2020-2021	244	1,2	3,2	0,0	12	-
2019-2020	242	1,2	3,5	0,1	11	-
2018-2019	230	1,2	3,6	0,1	10	-





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni
(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni	2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati
Jizzax sh.	3,2	28,4
tumanlar		
Arnasoy	0,7	18,5
Baxmal	3,4	10,4
G'allaorol	3,3	16,6
Sharof Rashidov	3,5	23,2
Do'stlik	0,9	20,9
Zomin	2,8	14,8
Zarbdor	1,5	48,4
Zafarobod	0,7	21,6
Mirzacho'l	0,7	9,3
Paxtakor	1,7	15,9
Forish	0,5	14,6
Yangiobod	0,6	8,8

O'qituvchilar soni

2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati





Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni (o'quv yili boshiga, kishi)



O'qituvchilar soni


O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)

Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ulushi
(2022/2023- o'quv yili boshiga)

Jizzax sh. **131 | 83 %**

Sh.Rashidov **25 | 17 %**




O'qituvchilar soni | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati







Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning (o'rindoshlarsiz) gender taqsimoti

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi oliy ma'lumotli o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)

Arnasoy	0,6	3,1%	Mirzacho'l	0,6	3%
Baxmal	3,4	15%	Zafarobod	0,6	3%
G'allaorol	3,1	14%	Jizzax sh.	3,2	15%
Sh.Rashidov	3,4	15%	Paxtakor	0,9	3,9%
Do'stlik	0,8	4%	Forish	1,6	6%
Zomin	2,5	11%	Yangiobod	0,5	2%
Zarbdor	1,3	5%			

O'qituvchilar soni | 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

(ming kishi)




(2022- yil uchun, ming kishi)

IX sinf bitiruvchilari	Shahar va tumanlar kesimida	XI sinf bitiruvchilari
3	Jizzax sh.	2,7
	tumanlar	
0,6	Arnasoy	0,4
2,4	Baxmal	2,1
2,7	G'allaorol	2,2
3,1	Sharof Rashidov	2,5
0,8	Do'stlik	0,8
2,6	Zomin	2,1
1,2	Zarbdor	0,9
0,7	Zafarobod	0,5
0,7	Mirzacho'l	0,5
1,1	Paxtakor	0,7
1,4	Forish	0,9
0,4	Yangiobod	0,3






Nodavlat umumta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari (ming kishi)




Shahar va tumanlar kesimida (2022- yil uchun, kishi)



- IX sinf bitiruvchilari
- XI sinf bitiruvchilari


Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining gender taqsimoti (2022- yil uchun, ming kishi)





Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtacha sonining sinflar bo'yicha taqsimlanishi *

(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)




Jizzax viloyatida 2022/2023- o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning **bitta sinfdagi** o'rtacha soni **22** nafarni tashkil etadi.

Ma'lumot o'rnida: umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni **35** nafardan **oshmasligi kerak.** (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" 2020- yil 23- sentabrdagi O'RBQ-637-son qonuni).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida sinflar soni *

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming birlik)



* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablari siz





Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Davlat ta'lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa.

Nodavlat umumta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadlari – o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilingan soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich, tayanch o'rta va o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ushbu ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma)lar olgan shaxslar soni.





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Jizzax viloyati Statistika
boshqarmasi**



e-mail:info@jizzaxstat.uz



**Manzil: 100170, Jizzax sh.
To'qimachilar ko'chasi, 7-uy**



www.jizzaxstat.uz



Tel.: +99871 221-51-36



facebook.com/jizzaxstatcom

